

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
TURKIY TILLAR KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: TURK TILIDAGI AXBOROT-TEXNOLOGIYALARI
BILAN BOG'LIQ ATAMALARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK
TADQIQI**

Bajardi: 5220100–Filologiyasi (sharq tillari)
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Shoraximova Komola Ubaydulla qizi

Ilmiy rahbar: Turkiy tillar kafedrası
katta o'qituvchisi f.f.n. Sh. Ibrohimova

Ishda turk tilidagi axborot texnologiyalari va kompyuter atamaları tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganiladi, atamalarning ma'no va muhim xususiyatlar aniqlanadi, maqsad va vazifalari, ularning tildagi o'рни va ahamiyati, tuzilishi belgilanadi.

TOSHKENT – 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

I BOB. TILSHUNOSLIKDA AXBOROT TEXNOLOGIYAGA OID ATAMASHUNOSLIK TIZIMINING TADQIQI.....	7
---	---

1.1. Zamonaviy atamashunoslikning nazariy asoslari.....	7
1.2. Turkologiyada axborot-texnologiyalariga oid atamalarning o`rganilish tarixi.....	14

II BOB. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI OIG ATAMALARNING SEMANTIK- FUNKSIONAL MAYDONI.....	17
---	----

2.1. Axborot texnologiyalariga doir atamalarning vazifasi.....	17
2.2. Turk tilidagi axborot –texnologiya atamalarining funksional–semantik tasnifi.....	22
2.2.1. Kompyuter texnologiyaga oid atamalar.....	30
2.2.2. Ommaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalar.....	33

XULOSA.....	43
-------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	45
---------------------------------	----

ILOVA.....	47
------------	----

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“ Sharq filologiyasi va falsafa”

fakulteti dekani

f.f.n.,dots. J.T.Ziyamuhamedov

Q.Sh.Omonov

“__” _____2012yil

“ Turkiy tillar ”

kafedrasi mudiri

f.f.n.,dots.

“__” _____2012yil

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio – televideniya, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang – barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad- muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz. Bugungi kunda ular bir vaqtning o'zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda, desak, xato bo'lmaydi. Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o'z kelajagini o'ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas. Shu sababli ham ommaviy axborot vositalarini zamon talablari asosida rivojlantirish, matbuot va so'z erkinligi prinsiplarini amalda ta'minlashga erishish, matbuotda tanqid ruhini kuchaytirish biz uchun eng muhim maqsadlardan biri bo'lib qolmoqda. Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo'lish matbuot, axborot va media tarmoqlari, jumladan, televideniye va radio sohasida xizmat qilishga ahd qilgan va bu sohada o'z kelajagini ko'rmoqchi bo'lgan ommaviy axborot vositalari xodimlarining faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglaymiz.¹

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak Ma'naviyat-Yengilmas Kuch" asari. T, 2010.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikga erishganidan so'ng barcha sohalarda katta o'zgarishlar bo'ldi. Har sohada yoshlarga ulkan imkoniyatlar yaratilib berildi. XX asrning 2-yarmi va XXI asrning birinchi o'n yilligini o'z ichiga olgan so'nggi yarim asrlik davrni kompyuter texnologiyalari davri deb atash mumkin. Chunki ana shu qisqa davr ichida insoniyat zakosining mahsuli bo'lgan kompyuter texnologiyalari to'la shakllandi va taraqqiy etmoqda. Chunki bu sohaga hizmat ko'rsatuvchi maxsus til va atamalar tizimi mavjud. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng turli davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'rnatish hamda rivojlantirish davr talabiga aylandi. Axborot va kompyuter texnologiya atamalarining tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilishi bitiruv – malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning yangiligi. Kompyuter atamashunosligi XX asrning 50-60-yillaridan e'tiboran shakllanib, rivojlana boshladi. Soha mutaxassislari qisqa davr ichida, hatto personal (shaxsiy) kompyuterlar paydo bo'lgunga (1988 – yilga) qadar boy lug'at zahirasiga ega bo'ldi. Bu davrga qadar kompyuter tili va soha bilan bog'liq maxsus atamashunoslik faqat mutaxassislari, ya'ni dasturchilar va olimlargagina ayon bo'lgan va ilmiy masalalarda qo'llanilgan, jamiyat bundan behabar bo'lgan bo'lsa, so'nggi 20 yil ichida ahvol tubdan o'zgardi. Kompyuter, axborot texnologiyalari hamma uchun qulay yordamchi, usiz hayotni tasavvur qilish qiyin bo'lib qoldi. Hech bir sohani kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuni hisobga olgan holda, axborot texnologiyalari va kompyuter bilan bog'liq atamalarni turk tilshunosligi nuqtai nazaridan o'rganilishini yangilik deb atash mumkin.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslik fani taraqqiyotning hozirgi davrigacha atamalar mavzusi ilmiy tadqiqotlar kun tartibidagi muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. O'zbek tilshunosligida axborot texnologiyalari haqida, A.Sarimsoqov, Z.Saidboboev, M.Aripov, G.A.Azizov, S.Muhammedov, rus tilida esa, M.A.Любанова, П.М.Алиева

va shu kabi tilshunos - olimlarning ilmiy maqolalari, ma'ruzalar matni, dissertatsiyalarda o'z aksini topgan.²

Bitiruv – malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv – malakaviy ishning asosiy maqsadi axborot texnologiyalari va kompyuter atamalarini tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish, atamalarning ma'no va muhim xususiyatlarini aniqlash, maqsad va vazifalarini, ularning tildagi o'rni va ahamiyatini ta'kidlash, tuzilishini belgilashdan iborat. Asosiy maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- Umumiy atamalarning kelib chiqish tarixini o'rganish;
- Turk tilidagi axborot va kompyuter texnologiyalariga tegishli atamalarni topish;
- Turk tilidagi axborot texnologiyalariga tegishli atamalarni semantik - funksional jihatdan tahlil qilish;
- Internet sahifalaridan mavzuga oid atamalarni topish va ularni alifbo tartibida joylashtirish;
- Turk tilidagi axborot texnologiyalariga oid atamalarni O'zbek tilidagi ma'nosi bilan solishtirish;
- Turk tilidagi axborot texnologiyalariga oid atamalarni qo'llanilish doirasiga ko'ra ajratish;

Bitiruv – malakaviy ishining ob'yekti. Hozirgi kunda turk tilida faol qo'llanib kelayotgan axborot texnologiya atamalaridan 65 ga yaqini ishning asosiy ob'yekti bo'lib xizmat qildi. Bunda asosiy diqqat – e'tibor atamalarning o'ziga xos xususiyatlariga qaratilib, ular turli mezonlarga ko'ra guruhlashtirildi.

²A.Sarimsoqov "Tarixiy atamashunoslik fanidan ma'ruza" Namangan 2008.

Z.Saidboboev "Tarixiy atamashunoslik" T, 2000.

M.Aripov "Internet va elektron aloqa asoslari" T, 2000.

G.A.Azizov "Informatika va axborot texnologiyalari" Qarshi, 2004.

S.Muhammedov "O'zbek tili funksional stillarini belgilash to'g'risida" T,1983.

M.A.Лобанова "Структурно-семантические особенности современной компьютерной терминологии на материале испанского языка" Челябинск, 2009.

П.М.Алиева "СОСТОЯНИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ" Ставрополь, 2011.

Ish jarayonida turk tili izohli lug'ati, internet sahifalari va o'quv qo'llanmalaridagi mavzuga tegishli ma'lumotlar va jonli suhbatdan foydalandik.

Bitiruv – malakaviy ishining tuzilishi. Malakaviy ishimiz an'anaviy shaklda "Kirish", ikkita bob, "Xulosa", "Foydalanilgan adabiyotlar", "Ilova" va internet manbalardan iborat .

I BOB. TILSHUNOSLIKDA AXBOROT TEXNOLOGIYAGA OID ATAMASHUNOSLIK TIZIMINING TADQIQI

1.1 Zamonaviy atamashunoslikning nazariy asoslari

Atamalarni maxsus fan terminologiya (atamashunoslik) o'rganadi. Atamashunoslik (terminologiya) so'zi lotincha «terminus» — termin va yunoncha «logos» — so'z farqlayman, kabi so'zlaridan olingan. Zamonaviy ma'noda **atama** — so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, ijtimoiy — siyosiy hayotdagi, fan, texnika va san'atdagi biror bir ma'noni, tushunchani anglatadi.³ Turk tilshunosligida ham atamalar haqida bir qancha ishlar qilingan. Atamalarning dastlab ikki katta guruhga ajratish to'g'ri bo'ladi:

1 - Umumiylik hususiyatiga ega bo'lgan atamalar.

2 - Hususiylik hususiyatiga ega bo'lgan atamalar.

Umumiy atamalar sirasiga bir terminologik tizimning barcha yo'nalishlari uchun tushunarli bo'lgan atamalar kiradi. Masalan, **bilgisayar ya'ni (kompyuter)ga oid, yozıcı-printer, klavye-klaviatura, tarayıcı-skaner, ekran-monitor, fare-sichqoncha (monitordagi programmalarni boshqaruvchi vosita)** atamalarini qo'llash mumkin. **Televizyon (televideniya)ga oid, kamera-kamera, mikrofon-mikrofon, yapım-teledastur, kanal-telekanal, mülakat-intervyu, rejisor-rejissor** singari atamalarni keltirib o'tish mumkin.

Hususiy atamalar esa faqatgina bitta mavzuviy guruh doirasida amal qiladi. Masalan, **müzik (musiq)ga oid, piyano-pianino, gitar-gitara, viyolonsel-skripka, davul-baraban** singari atamalar tor ixtisos doirasida qo'llaniladi. Bunday holatni fanlarning barcha yo'nalishlari va sohalarida kuzatish mumkin.⁴ E'tirof etish kerakki, turk tilida chetdan qabul qilingan axborot texnologiyalariga oid atamalarning salmog'i katta. An'anaga ko'ra ularni quyidagi yo'nalishlarda o'rganamiz:

³A. Sarimsoqov "Tarixiy atamashunoslik fanidan ma'ruza" Namangan 2008.

⁴ SH. Raxmatullayev O'zbek tilining etimologik lug'ati. —T., 2000.

1 - Arabcha: *mektup, mülakat, ceride, kütüphane*

2 - Forscha: *ruzname*

3 – Fransuzcha: *fonotelgraf, kanal, kaset, kamera, mikrofon, plan, plato, program, televizion, radyo, rejisor, reklam, röporta,*

4 - Italyancha: *gazete*

5 – Inglizcha: *video*

Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan respublikamiz miqyosida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tilimiz taraqqiyotiga, xususan uning terminologik rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Atamalar ulkan ilmiy ahamiyatga ega. Tabiat va jamiyatdagi mavjud xodisani o'rganish uchun uning aniq nomini bilish talab qilinadi. Bunda atama tushunchani izohlabgina qolmay, uni bir—biriga yaqin bo'lgan so'zlardan farqlaydi. Atamalarning paydo bo'lishidagi bir yo'l – bu unga muhim atamashunoslik ahamiyatini berish sanaladi. Ko'p hollarda atama umuman adabiy tildan hosil bo'lgan holda omonim bo'lib qoladi va o'z manbasiga nisbatan ma'lum ma'noda yoki umuman aloqasini uzadi (Masalan, operatssiya - ameliyat).⁵

Ko'p hollarda atama lug'at tarkibidagi so'zlardan so'z qo'shish yo'li bilan yasaladi yoki qo'shma so'z yasash bilan yasaladi. ko'pincha lotin va yunon tili elementlaridan foydalaniladi. Ba'zi hollarda atamalar turli tillardan kal'kalash yo'li bilan hosil bo'ladi. Kal'ka⁶ -so'z yoki ibora bo'lib shu so'z zahirida yoki boshqa tildagi talaffuzidan kelib chiqib ona tiliga o'girilishi tushuniladi. So'zlarni kal'kalaganda aniq morfologik tasavvur hosil bo'ladi. Kal'ka yo'li bilan ba'zan xorijiy tillardagi butun konstruksiyalar o'sha tildan aynan shunday tarjima qilinadi. Zamonaviy fanda atamalarning o'rganilishida quyidagi tushunchalar mavjud. Atama, atamashunoslik atamamaydon, atamamantiq va nomenklatur⁷ birliklarni chegaralshga

⁵ X.Bekmuhamedov "Tarix terminlari izohli lug'ati" T, 1978.

⁶ Kal'ka- (fr.calque-nusxa,taqlid.) boshqa til lug'aviy birligidan ona tili vositalari bilan so'zma-so'z tarjima qilish orqali yasalgan so'z yoki ibora. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2 jild. T, 2006.

⁷ Nomenklatura-ishlab chiqarish, fan, texnika, san'at va shu kabilarning biror sohasida qo'llanadigan nomlar, atamalar, terminlar va shu nomlar bilan atalavchi narsalar ro'yxati yoki majmui. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 3 jild. T, 2006.

harakat qilingan, atamalarning turli – tuman tasnifi kiritilgan lingvistik atamalar va lingvistik ensiklopediyalarning mavjud lug’atlari ko’rilgan. Atamashunoslik - vaqt bo’yicha o’zgaruvchi dinamik tizimdir. Zamonaviy tilshunoslik an’anaga aylangan atamalarni hali ham qo’llaydi: atama, atamatizm, atamamaydon, shu bilan ularning semantikasi o’zgardi. Ular ma’no jihatdan kengaydi. Tilshunoslikning o’zi yangi shartlar bo’yicha o’zining asosiy funksiyalarini yo’qotmasdan qo’llanilish sohasini kengaytirgan fanga aylandi. Atama tushunchasining o’zi tilshunoslik bilimlarining tor doirasidan chiqib ko’rinishini o’zgartirdi. Zamonaviy atamashunoslik bo’yicha ishlovchi tilshunoslar nuqtai nazarlarini tadqiq qilib quyidagi xulosaga kelindi.

1 – Atama so’z yoki so’z birikmasi bo’lib, ekspressivlik⁸ mavjud bo’lmagandagi atamamaydon chegarasidagi bir ma’nolikka tendensiya,⁹ tizimlilikni xarakterlovchi mahsus bilimlar maydonidagi tushunchalarni anglatadi.

2 – Atamashunoslik so’zi ikkita asosiy ma’nolarni funksionallashtiradi:

a) Atamashunoslik bu atamalar yig’indisi.

b) Atamashunoslik atamalar yig’indisini o’rganuvchi bilimlar sohasidir. Lingvistik atamashunoslikni biz lingvistika (tilshunoslik) atamalar yig’indisi va shu yig’indini o’rganuvchi fan sifatida qaraymiz.¹⁰

Atamalar tizmi atamalar jamlanmasining ichki tizimini anglatadi. Lingvistik atamashunoslik alohida tizimlarga bo’linuvchi murakkab tizimdir. Atamashunoslik ikki xil ma’noli so’z jamlanmasidir: leksik tizimlari va ilmiy tushunchalar tizimidir. Shu bilan birga atama leksik tizimlarning ideal a’zolari uchun ideal misol bo’la olmaydi, deb A.A.Reformatskiy yozgan edi. Tizimda atamalarning guruhlanish tartibi tilning tizimiga

⁸ Ekspress-kuchaytirilgan; ifodali, tasviriy. “O’zbek tilining izohli lug’ati” 4jild. T, 2006.

⁹ Tendensiya – taraqqiyot yo’nalishi; biror narsaga qiziqish, moyillik, intilish. “O’zbek tilining izohli lug’ati” 4 jild. T, 2006.

¹⁰ P. Alieva “Sostoyanie lingvisticheskoy terminologii v sovremennom russkom yazyke “Ставрополь, 2011.

bog'liq bo'ladi. Atamaviy tizimning an'anaviy birligi sifatida tilga oid va tashqaridagi atamalar ma'nolari ko'riladi. Ihtiyoriy atamaviy tizim elementlarning ierarxik (shajaraviy) bog'liqligidan tuziladi. Atamalararo bog'lanishlar strukturasi va atamashunoslikning bu muhim tizimi alomatlari, atamashunoslik qatorining ierarxik tartiblanishi asosida tuzilib, shu sohadagi ilmiy tushunchalar orasidagi ierarxik munosabatlar bog'lanishiga va taalluqligiga asoslanadi. Zamoaviy atamashunoslik tizimi doim o'zgarib turadi: bir atamalar yo'qolib ketsa, boshqalari paydo bo'ladi. Ya'ni bu tizim shu yoki boshqa soha doirasida yangilanishi jarayonida bo'ladi. Yangi sharoitlarda atamatizm tushunchasi ham o'zgaradi. Axborot texnologiyalari doirasida turli bilimlar sohasida atamatizm o'rtasida doimiy yangilanish bo'lgani sababli u kengayadi. Atamamaydon leksikada biz atamalar paydo bo'lishining o'ziga hos maydonini ko'rish mumkin. Unda atama barcha alomatlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, bir sohaga tegishlilik atama-so'z oddiy so'zdan, shu alomatlar bo'yicha farqlanadi. Zamonaviy atamashunoslik maydoniligidan yangi atamalar lingvistik dalillar ta'sirini tanlaydigan mustaqil struktura¹¹ sifatida ko'rish mumkin. Atama bir sohadan ikkinchi sohaga qisman yoki butunlay ma'no o'zgartirilishi ko'chirilganda, reterminologizatsiya¹² bo'lib, omonimiya vujudga keladi. Har bir omonim atama o'zining atamashunoslik maydoniga ega bo'ladi.

Zamonaviy atamaning qo'llanilishi bu - uning sohasining qo'llanilishidir, uning maydonga mansubligi – bu atama sifatida mavjudlik doirasidir. Atamashunoslik maydoni leksik maydondan farqli ravishda umumiy emas, mahsus tushunchalarga tegishli mahsus leksika kiradi. Atamamaydon atamatizimning funksiallashuvi va tuzilish shartalarini amalga oshiradi. Har bir atamamaydonda boshqa sohada qo'llaniladigan so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qatlami joylashadi. Lingvistik

¹¹ Struktura – muayyan narsalarning tuzilishi, qurilishi; tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 3jild. T, 2006.

¹² Reterminologizatsiya- tayyor atamani bitta tartibdan boshqa tartibga to'liq yoki qisman ko'chirish.

atamashunoslik analizi, ya'ni shu maydon tuzilishini tadqiq qilish, atamashunoslik so'z yasash va atamaviy so'z birikmalarini hosil qilish atamashunoslikning muhim vazifasi hisoblanadi.

Zamonaviy atama o'zining qat'iy tizimlilikini, bir ma'noliligini yo'qotib, pragmatik¹³ tarkibga ega bo'lganda u determinlashadi¹⁴ va tushunish talab qiladigan atamaviy ma'noga ega yangi so'z paydo bo'ladi. Zamonaviy talablarda atamamaydon tushunchasi o'zgardi: avvallari maydon tushunchasi tilshunoslik tushunchalari ichida bo'lgan bo'lsa, XXI asrda u interlingvistik¹⁵ bo'ladi. Atamalarning bir doiradan boshqasiga o'tishi transterminologizatsiya¹⁶ jarayonini aktivlashtiradi. Ihtiyoriy nutqning ma'lum qismi atama bo'la oladimi degan savolga ko'pgina tilshunos olimlar ko'rib chiqishgan. Ular (G.O.Vinokur, A.A.Kapanadze, O.S.Axmanova, B.N.Golovin, V.P.Danilenko, T.V.Jerebilo, L.Yu.Buyanov) va boshqalar. Lingvistik atamashunoslikda sinonimlik, omonimlik, antonimlik hodisalari kuzatiladi. Zamonaviy tilda terminologik dubletlar¹⁷ va sinonimlar ko'p uchraydi. Shunday bo'lsa-da, bu ikki tushunchani farqlash zarur. Masalan: uslub va bo'g'in sinonimlik munosabatdagi so'zlar, ular dubletlar emas. Publisistik uslub birikmasi lingvistik bo'g'in vazifasida qo'llanila olmaydi. Tezaur¹⁸ va kognitiv¹⁹ atamalar tilda dubletlar sifatida qo'llaniladi, lekin lingvistik yo'nalishlar xarakteristikasini tasvirlashda kognitivlik lingvistikasi atamasi qo'llaniladi. Shundan kelib chiqib, ushbu terminlarni bir matnda dubletlar, boshqa kontekstda esa sinonimlar deb olinadi. Semantika va ma'no sinonimlardir, lekin dublet emas. Alohida til birligi semantikaga ega bo'lishi mumkin,

¹³ Pragmatik – yun.pragma- ish, harakat. “O'zbek tilining izohli lug'ati” 3jild. T, 2006.

¹⁴ Determin – lot.aniqlamoq, chegaralamoq, qismlarga ajratmoq “O'zbek tilining izohli lug'ati” 3jild. T, 2006.

¹⁵ Interlingvistika – lingvistikaning bir turi bo'lib, dunyoning har xil tillaridagi muloqatning nuqtai nazari, uni yanada takomillashtirish, dunyoning sun'iy tillari bilan shug'ullanishdir.

¹⁶ Transterminologizatsiya- atamalarning bir doiradan boshqasiga o'tish jarayoni.

¹⁷ Dublet – tilda ma'nosiga ko'ra aynan teng keluvchi va biri ikkinchisi o'rniga almashinib qo'llanishi mumkin bo'lgan so'z va boshqa xil lisoniy birlik. “O'zbek tilining izohli lug'ati” 1jild. T, 2006.

¹⁸ Tezaur-yun.xazina, boylik- muayyan tildagi barcha so'zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo'llanilish holatlarini to'la to'kis aks ettiradigan lug'at. “O'zbek tilining izohli lug'ati” 3jild. T, 2006.

¹⁹ Kognitiv – o'rganish

lekin ma'no faqatgina kontekstda namoyon bo'ladi, ya'ni bog'langan matn bo'lmasa, ma'no ham bo'lmaydi. Demak, dubletlar bir – birini o'rnida qo'llanilishi mumkin, sinonimlar esa, ma'lum bo'yoqlar bilan farqlanadi. Yangi ilmiy uslubda atamalar transterminologizatsiya hodisasi kuzatiladi. Transterminologizatsiya oqibatida: omonimlar shakllanadi. Masalan: izomorfizm²⁰ atamasi, ham matematikada, hamda lingvistikada, subyekt, alfavit – lingvistika va mantiqda, logos lingvistika falsafa, matematika va boshqalarda qo'llaniladi. Atamalarning antonimlik xususiyati ham aniqlangan. Atamalar ma'lum bir qismi nutqdan chiqib ketgan. Bu atamalar tarixiy deb yuritiladi. Tilshunoslikda til komponentlarining²¹ ichki munosabatlarini, o'zaro bog'liqligini, tilning struktura tomonini yoritish asosiy maqsad qilib qo'yilgan yo'nalish strukturalizm hisoblanadi. Tilning yoki ayrim til birliklari (morfema, so'z, gaplar) ning qurilishi struktura hisoblanadi: gap strukturasi, semantik struktura, so'z yasaliş strukturasi kabilar. Atamalarning asosiy struktura birliklari: fonema, leksema, morfema va konstruktsiya.²² Til haqiqiy mavjudligining xususiyatlariga asoslangan holda katta abstraksiya²³ negizida o'rganiladi. Strukturani tavsiflashda yetkaziladigan axborot mazmuniga asoslanadi. **Til birligiga:** fonema, morfema, leksema, konstruktsiya (model') kirsa. **Nutq birliklari:** tovush, bo'g'in; affiks (qo'shimcha), morf, so'z (leks); so'z shakli, so'z birikmasi, gap, matn sanaladi. Tilning struktura tomonini til sistemasidagi ichki munosabatlar va aloqalar bilan chegaralovchi birliklarni struktural lingvistika o'rganadi. Tilning tovush tizimi, morfologik qurilishi, lug'at tarkibi, sintaktik tuzilmasi bir butun struktura sanaladi. Ferdinand de Sossur, I. A. Boduen de Kurtene, F. Fortunatov til strukturasi katta e'tibor berganlar. F. de Sossur forma (shakl) atamasini qo'llagan o'rinlarda golland filosofi X. I. Pos, tilshunos V. Brendal 1939-yilda e'lon qilgan maqolalarida struktura atamasini

²⁰ Izomorfizm- yun. Teng, bir xil, o'xshash, shakl. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2jild. T, 2006.

²¹ Komponent-tashkil etuvchi, tarkibiy qism. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2jild. T, 2006.

²² Konstruktsiya-grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, bir sintaktik birikmani tashkil etadigan ikki va undan ortiq so'z; umuman, so'zlar birikmasi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2jild. T, 2006.

²³ Abstraksiya – lot.abstractio-mavhumlik, noma'lumlik. Abstraksiyalash yo'li bilan hosil qilingan mavhum tushuncha, nazariy umumlashtirma, nazariy xulosa. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 1jild. T, 2006.

ishlatadilar. Struktural lingvistika tilni ishoralar tizimi sifatida o'rganadi va uning shartli belgilik xususiyati bilan qiziqadi.

Strukturalizmning uch asosiy tarmogi mavjud:

1. Praga strukturalizmi (yoki funksional lingvistika) maktabi.
2. Kopengagen strukturalizm (yoki glossematika²⁴) maktabi.
3. Amerika strukturalizm (lingvistika) maktabi.

Hozirgi paytda mavjud Praga strukturalizmi (yoki funksional lingvistika), Kopengagen strukturalizmi (yoki glossematika) va Amerika strukturalizmi (lingvistika) garchi bir-birlaridan tilshunoslikning predmeti va tilni ilmiy o'rganishda qo'llaniladigan metodlar masalasida farqlansalar-da, ularni birlashtiradigan umumiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Til struktura bo'lib, o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini taqozo qiladigan elementlarning murakkab sistemasidir.

2. Til sinxronik aspektda²⁵ o'rganilishi lozim.

3. Tilni o'rganish munosabatlar sistemasi bo'lgan tilning shakliga asoslanishi kerak.

4. Tilshunoslik aniq fanlar qatoridan o'rin olishi kerak.

Shunday qilib, strukturalizmning paydo bo'lishi bilan tilshunoslik fanining ideal obykti - til forma va struktura deb ta'riflana boshladi.²⁶

²⁴ Glossematika – bu lingvistik nazariya, bu nazariyadagi qarashlar deduktiv tarzda qurilishi kerak, aniq tillardan emas, balki umumiy o'zlashtirilgan aniq prinsiplardan kelib chiqishi kerak.

²⁵ Aspekt – narsa-hodisa, tushunchalarni o'rganilishiga asos bo'ladigan nuqtai nazar. “O'zbek tilining izohli lug'ati” 1 jild. T, 2006.

²⁶ B.O'rinboyev “Tilshunoslik tarixi” Samarqand, 1995

1.2. Turkologiyada axborot-texnologiyalariga oid atamalarning o`rganilish tarixi.

Kundalik hayotimizda turli ko`rinishdagi axborotlar masalan, matnli, grafikli, jadvalli, ovozli(audio), rasmlar, tasvirli(video) va boshqa axborotlar bilan ishlashga to`g`ri keladi. Axborot texnologiyasi biror obyekt, jarayon yoki hodisaning holati haqidagi axborotlarni to`plash, qayta ishlash va uzatishni amalga oshiruvchi jarayondir. Axborot jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi. Bir qator olimlar axborot jamiyatiga xos xususiyatlarni quyidagicha ko`rsatadilar:

- axborot inqirozi muammosi xal etildi, ya'ni axborot mo'l-ko'lligi va axborot yetakchilligi o`rtasidagi ziddiyat yechildi;
- boshqa zaxiralarga qiyoslanganda axborot ustuvorligi ta'minlandi;
- rivojlanishning asosiy shakli axborot iqtisodiyoti bo'ladi;
- eng yangi axborot texnika va texnologiyalari yordamida avtomatlashtirilgan holda bilimlarni saqlash, qayta ishlash va foydalanish jamiyati shakllanadi;
- axborot texnologiyasi inson ijtimoiy faoliyatining barcha sohalarini qamrab olib, umumiylik xususiyat kasb etmoqda;
- butun insoniyat sivilizasiyasining axborot birligi shakllanmoqda;
- zamonaviy axborot vositalari yordamida har bir insonning butun sivilizatsiya axborot zaxiralariga erkin kirishi amalga oshdi.²⁷

Ijobiy tomonlardan tashqari, salbiy oqibatlar xam oldindan ko`rilgan:

a) ommaviy axborot vositalarining jamiyatga tobora ko`proq ta'sir ko`rsatishi;

b) axborot texnologiyalari odamlar va tashkilotlarning xususiy hayotini buzib yuborishi;

v) sifatli va ishonchli axborotni tanlash muammosi mavjudligi;

g) ko`pgina odamlarning axborot jamiyati muxitiga moslashishi qiyinligi. "Axborot elitasi" (axborotlarni qayta ishlash bilan shug`ullanuvchi

²⁷ M. Aripov "Internet va elektron aloqa asoslari" T, 2000

kishilar) va iste'molchilar orasida muammolar vujudga kelishi xavfi. Zamonaviy axborot texnologiyalari–shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanilgan holdagi zamonaviy muloqotni o'rnatuvchi axborot texnologiyasi hisoblanadi.²⁸ Zamonaviy axborot texnologiyalarining asosiy texnik vositalari sifatida hozirgi kunda **(bilgisayar-kompyuter, hesaplama araci-hisoblash vositasi, audio ve video araclar-audio-video vositalar, bag'lanti araci-aloqa vositasi, belgegeçer-faks)** va boshqalar qo'llaniladi. Jamiyatimizda axborotlarni uzatish, qabul qilish, hamda axborotlarni tarqatish uchun turli xil qurilmalar qo'llaniladi. Bu qurilmalarga , **(hesaplama araci -xisoblash vositasi, telgraf-telegraf, teyp-magnitafon, televizyon-televideniye va radyo-radio)**ni misol qilib olishimiz mumkin. Bu qurilmalarda axborotlarni saqlashda va uzatishda ma'lum bir ko'rinishdagi signallar yordamida amalga oshiriladi.Xozirgi kunda axborotlarni keng ommaga uzatishda va tarqatishda televidiniya, radio vositalaridan keng foydalaniladi. Bu vositalar yordamida biz mamlakatimizdagi va boshqa mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy o'zgarishlar to'g'risida, madaniyat, sport va boshqa sohalardagi yangiliklardan xabardor bo'lamiz. Zamonaviy telefon vositasining funksiyalari ko'p: avtojavob beruvchi, qo'ng'iroq qilayotgan abonentning raqamini aniqlovchi, telefon raqamini bilib olishdan himoyalash va boshqalar. Qog'ozli xabarlarni uzatish vositalari ko'p. Rivojlangan vositalardan biri-telefaks aloqasidir.²⁹ Belgegeçer- faks (lotincha – faxsimile, o'xshashini yarat) – xujjat originalini xuddi o'ziday aks ettiradi. Bunda, uzatishda xabar elementlarini skanerlash yo'li bilan o'zgartiriladi. Qabul qilish apparati qatordagi ketma-ket signallarni qabul qilib, qog'ozdagi tasvirga aylantiradi. Elmek-elektron maktub–bu qog'ozsiz pochta, u telefon tarmog'i bilan kompyuterga ulangan. Elektron maktub-pochta, telegraf, aloqa imkoniyatlaring bir qismini o'ziga olib, o'zining tezkorligi tufayli yangi axborot xizmatlarini taklif etadi.

²⁸S.S. G'ulomov "Axborot tizimlari va texnologiyalari" T, 2000.

²⁹A. Norov, L.Safarov, B.Shovaliyeв "Informatika va axborot texnologiyalari" Qarshi, 2004

Televideniye hayotga uzoqdan qurish sifatida kirib keldi va ommaviy xodisaga aylanib qoldi. Dunyoda 4 mlrd.dan ortiq telepriyomniklar ishlatiladi. Televizyon-televizor bu juda murakkab axborot qurilmasidir. Televizorni qurish g'oyasi quyidagicha:

- tasvir elementlarini o'zgartirish yo'li bilan elektr signallar ketma ketligiga aylantiradi (tasvir analizi);

- ularni aloqa kanallari orqali nuqtalardan qimirlaydigan rasmga teskari aylantirish (tasvir sintezi) amalga oshiriladigan qabul qilish punktiga uzatiladi. Bu nazariya XX asr oxirida portugaliyalik olim A.Di.Payva va rus olimi P.N.Bexmetev tomonidan ishlab chiqilgan. Amaliy qarorlarni ishlab chiqish va foydalanishni boshlash V.K.Zvorkin va F.Fransuorti (AQSh) bilan bog'liq. Televideniya orqali siyosiy, madaniy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy axborotlar beriladi.³⁰ Televideniyaning har bosqichi axborot texnologiyalar asosidagi interaktiv televideniya bo'ldi.

³⁰ M.X.Lutfullayev "Multimediali elektron darsliklar asosida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish" T, 2003

II BOB. AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID ATAMALARNING SEMANTIK- FUNKSIONAL MAYDONI

2.1. Axborot texnologiyalariga doir atamalarning vazifasi

Axborot lotincha “informatics” so‘zidan olingan bo‘lib nimanidir tushuntirish, bayon qilishni, nima haqidadir xabar ma’nosini bildiradi. Axborotga ishlov berish kabi tushuncha yaqinda paydo bo‘ldi, ammo odamlar axborotga ishlov berishni ancha oldinroq boshlaganlar. Axborot ustida aniq texnik vositalar yig‘indisi yordamida zarur harakatlarni bajarish jarayoni **axborot texnologiyasi** deb ataladi. Axborot tushunchasi bilan biz har kuni to‘qnash kelganimizga qaramay, uning umum e’tirof etilgan aniq ta’rifi yo‘q.

Axborot – fan va texnika rivojlanishi natijalari xaqidagi fan-texnika ma’lumotlari, bilimlari yig‘indisidir. Boshqacha aytganda, axborot, mazkur talqinga binoan, fan-texnika faoliyati axborot xizmati tizimining ma’lumot usuli va “xom-ashyo”sidir.

Axborot – axborot xizmati tizimlarida fan-texnika faoliyati va turli sohalarda kadrlar tayyorlashni shakllantiruvchi maxsulotlar yig‘indisidir, ya’ni axborot zaxiralarini ishlab chiqarish va iste’mol etish faqat jamiyatning intellektual xayoti bilan cheklanadi.³¹ Axborot texnologiyalari faqat fan va texnika hodisasi bo‘lmasdan, iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda. Axborot bilan qamrab olinmagan biror muhim xo‘jalik sektorini (ishlab chiqarish, transport, kredit-moliya sohasi, savdo) misol keltirish qiyin. Ayni paytda kompyuterlar va aloqa vositalari asosida axborotni to‘plash, saqlash va taqdim etishning zamonaviy usullari, yangi axborot texnologiyalari va xizmatlarni sotish (tarqatish) maqsadlarida ishlab chiqarish mustaqil tarmoq sifatida shakllandi va ajralib chiqdi. Shunday qilib, xalq xo‘jaligini axborotlashtirish kelgusiga yorib o‘tish demakdir. Turk tilida **TV pult** atamasi deyarli qo‘llanilmaydi. Ushbu atamaning o‘rniga **kumanda**

³¹ G.A.Azizov “Informatika va axborot texnologiyalari” Qarshi, 2004

atamasi, **kompütür (kompyuter)** so'zining o'rniga esa **bilgisayar (bilgi – bilim, ma'lumot, sayar- sanar, sanaydigan)** atamasi, yoki **skaner** so'zining o'rniga **tarayıcı** atamasi, **Fax (faks)** atamasi **belgegeçer (belge - hujjat, geçer – o'tar, o'tuvchi)** atamaları bilan atala boshlangan. Shu bilan birga axborot texnologiyalari turli xil sohalarda, xususan:

Biznes sohasi

Axborot texnologiyalari yangi korxona yoki firmaning muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatishida katta rol o'ynashi mumkin. Masalan:

- biznes reja tuzishda va kutilayotgan daromad va chiqimlarni hisoblashda;
- kompaniya yoki firmaning emblemasini va tegishli hujjatlarini tartibga keltirishda;
- kompaniya yoki firmaning taqdimot marosimini o'tkazishda;
- reklamalarning loyihasini tuzish va reklama materiallarini tayyorlash, hisobotlar, shartnomalarni tayyorlashda;
- mijozlar xaqidagi ma'lumotlar, ro'yxatlarni saqlash va ular bilan ishlashda;
- boshqa firmalar, potensial ta'minotchi, ulgurji xaridorlar bilan bog'lanishda;
- mijozlar va ta'minotchilar bilan muzokara olib borish va boshqalar.

Bank sohasi

Bank tizimi o'zining ish faoliyatida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega. Masalan:

- yil davomida sutkasiga 24 soat mijozlarga aloqa uchun va tegishli ma'lumotlarni olish, balansni tekshirish, hisobni to'lash imkoniyatini yaratish;
- mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish;
- kredit kartochkalari yordamida telefon yoki Internet orqali xizmatni yo'lga qo'yish va boshqalar.

Robototexnika sohasi

Ma'lumki, "robot" so'zi bizning tilimizga ilmiy fantastikadan kirib kelgan. Birinchi bor bu so'zni oltmish yil oldin taniqli chex fantast yozuvchisi Karel Chepek ishlatgan. Ammo «mexanik odamlar» undan oldinroq ham ma'lum edi. O'rta asrlarda inson iste'dodlariga ega bo'lgan musiqachi-qo'g'irchoq

yoki rassom-qo'g'irchoqlar paydo bo'lganligi ma'lum. Kompyuter asri boshlanishi bilan insonni og'ir va zararli mehnatdan ozod etadigan robotlar paydo bo'ldi. Ular garchi odam qiyofasida bo'lmasada, ko'plab funksiyalarni (ishlarni) bajara oladilar. Robotlarni yaratish bilan shug'ullanadigan texnikaning maxsus shaxobchasi – robototexnika paydo bo'ldi. Robotlar orasida keng tarqalgani bu robot manipulyatorlardir. Manipulyatorlar³² – o'ta sezgir va kuchli mexanik qo'ldir. Robotlarni kompyuter boshqarib turadi, ya'ni kompyuter robotning «miyasi»dir, ular telekameralar orqali «ko'rib», mikrofonlar yordamida «eshitadilar», ya'ni axborot qabul qiladilar. Maxsus datchiklar «sezgi» organi vazifasini o'taydi.

Marketing sohasi

Marketing inglizcha «market» (bozor) so'zidan olingan bo'lib, bozor, savdo sohasidagi faoliyatini anglatadi. Marketingda eng asosiysi, bozorni, xaridorlar talab va ehtiyojlarini chuqur va har taraflama o'rganish va ishlab chiqarishni shuning asosiga qurish, ikkinchi tomondan esa bozorga, mavjud talab va ehtiyojga faol ta'sir ko'rsatish, xaridorlarning muayyan mollarga bo'lgan talablarini shakllantirishdan iborat. Marketingni kompyuterlarsiz, axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ishlab chiqarish sohasi

Ishlab chiqarishning deyarli barcha sohalarida kompyuterlar qo'llanilib kelmoqda. Kompyuterlar ko'pgina texnologik jarayonlarni boshqarmoqda. Ular yordamida yangi mahsulotning chizmasini yaratishdan toki tayyor mahsulot bo'lib chiqqunga qadar bo'lgan barcha jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin. Mahsulot shaklini konstruktor³³ kompyuter ekranida chizib, tegishli o'zgartirishlar yasab, qog'ozga chop etishi mumkin. Mahsulotni ishlab chiqarish uchun kerakli barcha qurilmaning imkoniyatlari, unga ketadigan sarf-xarajatlarni hisob-kitob qilishda va boshqa ishlarni

³² Manipulyator – o'ta sezgir va kuchli mexanik qo'l "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2- jild. T, 2006

³³ Konstruktor - mashina, mexanizm, inshoot va ularning ayrim qismlari konstruksiyasini, loyihasini tuzuvchi mutaxassis, injener. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2- jild. T,2006

bajarishda ham kompyuter beg`araz yordamchidir. Mahsulotni ishlab chiqarishda axborot asosiy kompyuterdan ishlab chiqarish liniyalariga etkaziladi. U erda axborotni qabul qilishga tayyor turgan robotlar kompyuter uzatgan dastur asosida mahsulotni yig`a boshlaydi, Tayyor mahsulotlar esa robotlar yordamida tekshirilib, omborlarga jo`natiladi.

Tibbiyot sohasi

Ma'lumki, shifokorga borishni ko`pchiligingiz xush ko`rmaysiz. Birinchidan, siz bemorsiz. Sog`lom odam u erga bormaydi. Ikkinchidan, u yerda hamma joyda navbatda turishga to`g`ri keladi. Masalan, registraturada<sup>34</sup> kasallik varaqasi uchun, shifokorlar qabuliga kirish uchun va hokazo. Uchinchidan, shifokor yozib bergan dorilarni dorixonalardan izlash kerak bo`ladi. Kompyuterlarning shifoxonalarda va poliklinikalarda paydo bo`lishi ko`p narsalarni, jumladan, yuqoridagi muammolarni ham tubdan o`zgartirib yuboradi. Endi siz to`g`ridan-to`g`ri shifokor huzuriga yo`l olasiz. Uning ish stolida odatdagi meditsina ish qurollaridan tashqari kompyuter ham joy olgan: uning xotirasida barcha bemorlarning kasallik tarixi yozib qo`yilgan. Agar siz oldin ham murojaat etgan bo`lsangiz, sizniki ham bo`ladi. Birinchi bor murojat etayotgan bo`lsangiz siz haqingizdagi barcha axborotni shu yerning o`zida shifokor kompyuterga kiritib qo`yadi. Kasalligingiz haqidagi barcha ma'lumotlar kompyuterga kiritilgach, sizning kasalligingiz haqida tashxis qo`yiladi va chop etish qurilmasi yordamida dorilar uchun retsept chop etib beriladi. Retseptni olib, boshqa kompyuter yordamida ushbu dorilarni eng yaqin bo`lgan qaysi dorixonalardan topish mumkinligi haqida axborot olishingiz mumkin. Kompyuter meditsinadan boshqa ishlarga ham qodir. Masalan, tomograf – ya'ni siljib harakatlanadigan rentgen apparati insonning ixtiyoriy organi haqida to`liq ma'lumot olishi, ulardagi mikroskopik defektlar, chet jinslar (masalan, buyrakdagi tosh) haqida ma'lumot berishi mumkin. Tomograf uzatgan axborotni tezda qayta ishlash va ekranda ko`rsatish uchun albatta u kompyuter bilan bog`langan bo`lishi shart.

³⁴ Registratura-nem, registratur, qayd etilgan, yozib qo`yilgan-muassasa, idora, poliklinika va boshqalarning ro`yxatdan o`tkazish bo`limi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2- jild. T,2006

Kompyuter va san'at

Kompyuterning san'atga qanday aloqasi bor? Kompyuterlar aniq programma asosida ishlaydi. San'at esa – bu irod, fantaziyaadir. Lekin bu sohada ham kompyuter irod ahliga yordam berishi mumkin. Kompozitor musiqa yaratishda kompyuterdan unumli foydalanishi mumkin. Buning uchun kichik royal yoki elektro argan yordamida kompyuterga ulanib yozayotgan musiqa notalarini ekranda ko`rib turgan holda yangi asar yaratishi va shu yerning o`zida, shu onda eshitib ko`rishi ham mumkin. Kompyuterlar rassomlarga ham yoqib qolgan. Kompyuter grafikasi bo`yicha birinchi ko`rgazma 1956 yili o`tkazilgan. Turli eskizlar, chizmalar va rasmlar chizishda rassomlar kompyuterdan foydalanib kelmoqdalar. Bundan tashqari, kino va televidiniya ham kompyuterlarsiz tasavvur etish qiyin. Hozirgi davrda turli joylarda, mintaqalarda, hatto qit'alarda yashaydigan insonlar ishtirokida telekonferensiyalar o`tkazish an'anaga aylanib qolmoqda. Shuning uchun, odatda, ta'rif o`rniga axborot haqidagi tushunchadan foydalaniladi. Tushunchalar ta'riflardan farqli o'laroq bitta ma'noda, bir qolipda berilmaydi, misollar bilan kiritiladi, bunda har bir fan o'zining predmeti va vazifalariga eng yaxshi holda mos keladigan komponentlarni asosiy komponentlar sifatida ajratib, ko'rsatib ish ko'radi. Bunday holatda quyidagi vaziyat yuzaga kelishi mumkin, bir ilmiy fan doirasida kiritilgan axborot haqidagi tushuncha boshqa fan doirasida olingan aniq misollar va dalillar bilan inkor qilinishi mumkin. Masalan, axborotning tabiiy fanlar uchun xos bo'lgan, bizni o'rab turgan olamning obyektiv voqeligi haqidagi bilimlarimiz darajasini oshiruvchi ma'lumotlar yig'indisi sifatidagi tasavvur ijtimoiy fanlar sohasida rad etilishi mumkin. Axborot jarayoni davomida ma'lumotlar turli usullar yordamida bir turdan ikkinchisiga aylantiriladi. Ma'lumotlarni qayta ishlash o'z ichiga turli xildagi ko'plab amallarni kiritadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlana borgan va kishilik jamiyatida aloqalar murakkablashgan sari ma'lumotlarni qayta ishlashga ketadigan mehnat sarfi to'xtovsiz oshib boradi. Bu, eng avvalo, ishlab chiqarishni va jamiyatni boshqarish shart-sharoitlarining muttasil

ravishda murakkablashib borayotganligi bilan bog'liqdir. Ma'lumotlarni qayta ishlash hajmining umumiy o'sishini keltirib chiqaruvchi ikkinchi omil ham ilmiy-texnik taraqqiyot bilan, aynan ma'lumotlar tashuvchilarning hamda ularni saqlash va yetkazish vositalarining yangilarini paydo bo'lishi, joriy qilinishi bilan bog'liqdir. Ma'lumotlar o'zlarida moddiy dunyoda ro'y bergan voqealar, hodisalar haqidagi axborotni tashiydilar, chunki ular o'sha voqealar natijasida vujudga kelgan signallarning aks-sadosidir. Ammo ma'lumotlar axborot bilan bir emas, ya'ni aynan axborot emas. Ma'lumotlarning axborotga aylanishi ko'p holatlarga bog'liqdir. Bunga bir qator misollarni ko'rib chiqamiz. Radiostansiyadan notanish berilayotgan eshittirishni tinglab ma'lumotlar olamiz, lekin ularni o'zimizga ma'lum bo'lgan tushunchalarga aylantirish usulini egallamaganligimiz (bilmaganligimiz) uchun axborot ololmaymiz. Agar bu ma'lumotlar bir varaq qog'ozga yoki magnit tasmasiga yozib olinsa, ularning taqdim etish shakli o'zgaradi, ular yangitdan qayd etiladi va shunga mos ravishda yangi ma'lumotlar hosil bo'ladi. Bunday paytda o'zgartirishdan har holda ularning yangi shakliga to'liq mos bo'lgan usulni tanlash yo'li bilan axborot olish uchun foydalanish mumkin. Agar bizning misolimizda radioeshittirishni sizga notanish olib borilayotgan teleko'rsatuvga almashtiradigan bo'lsak, shuni ko'rishimiz mumkinki, bunda biz ma'lumotlar bilan birga ma'lum bir (to'liq bo'lmasa ham) axborotni olamiz. Bu shu narsa bilan bog'liqki, ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lmagan kishilar elektromagnit signallarini ko'rinuvchi spektr³⁵ chastotasi ko'z sezuvchanligi chegarasidan ortiq tizimi (intensivlik)³⁶ bilan uzatuvchi ma'lumotlarni qabul qilishning adekvat usulidan ustun tarzda sezadilar. Bunday hollarda usul kontekst bo'yicha ma'lum deyiladi, ya'ni axborotni tashkil qiluvchi ma'lumotlar va axborotni olishning adekvat usulini belgilab berishi bilan bir xildagi xususiyatga ega bo'ladilar.

³⁵ Spektr-tasavvur, ko'zga ko'rinadigan, ko'rib bo'ladigan narsa, tasvir. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2jild. T, 2006

³⁶ Intensiv-ortiq darajada jadal, tez, qizg'in. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2 jild. T, 2006

2.2. Turk tilidagi axborot – texnologiya atamalarining semantik tasnifi

Oddiy soʻzlardan farq qilib atamalar, oʻzining aniq semantik chegaralariga ega. Atamalar hamma vaqt ham oʻz maʼnosini anglatavermaydi. Har qanday ilmiy va texnik sohada koʻp miqdordagi omonim — atamalar va sinonim — atamalar mavjud. Bu esa maʼlum maʼnoda noqulayliklar tugʻdiradi. Shuning uchun ham fan va texnikadagi atamalarning tartiblash ishlari bu yoʻldagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Ijtimoiy — siyosiy, ilmiy va texnik atamalar hozirgi kunda bir tildan boshqa tilga oʻtib xalqaro leksik fond tarkibiga kirmoqda. Baʼzi sodda yasama soʻzlarning yasalishi tarixiy va zamonaviyligi bilan ham farqlanadi. Chunki yasama soʻzning tarixiy shaklida zamonaviy yasalmaga nisbatan asos va qoʻshimcha oʻrtasidagi munosabatni ilgʻab olish qiyin kechadi yoki soʻzdagi maʼnoli qismlar oʻz maʼnosini yoʻqotgan boʻladi.

Turk tilidagi axborot texnologiyalariga oid atamalarninigi semantik-funksional tasnifini uch guruhga ajratish mumkin:

1 – Soʻzdan iborat atamalar:

Anten- antenna

İnternet – internet

Radyo – radio

Kumanda – TV pult

Bilgisayar – kompyuter

2 – Soʻz birikmasi shaklidagi atamalar:

Ankesörlü telefon – qutili telefon, uy telefoni.

Cep telefonu – (**Mobil telefon**) uyali aloqa telefoni. simsiz telefon

Buzlu cam – televizor ekrani, oynayi jahon

3 - Simvol soʻzlar (ramz, yaʼni belgi - soʻzlar) shaklidagi atamalar:

Shift tuşu - Shift tugmasi

CAPS LOCK tuşu – CAPS LOCK tugmasi

Num Lock tuşu – Num Lock tugmasi

Ma'no-mazmun va mantiq nuqtai nazaridan ham kompyuter va axborot texnologiya atamalarini ham uch guruhga ajratish mumkin:

1 - Predmet nomlarini ifodalovchi atamalar:

Belgegeçer - faks

Disk – disk

Çevirge - komp. modem

Mikrofon –mikrafon

2 - Ish jarayonlari nomini ifodalovchi atamalar:

Dublaj – dublyaj, filmlarga ovoz berish jarayoni

Kamera –televidiniyada tasvirga olish uchun mahsus qurilma.

Tarayıcı – skaner, köpaytirish vositasi

3- Kattaliklar va ularning birliklarini ifodalovchi atamalar:

bayt, bit, gigabayt, piksel.

1) So'zdan iborat atamalarning to'liq ma'no va vazifalarinin ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular quyidagicha:

Anten – antenna ya'ni elektromagnit to'lqinlarni fazoga uzatuvchi yoki qabul qiluvchi qurilma, uning funksiyasi (vazifasi) dunyoda bo'layotgan voqea – hodisa, teleko'rsatuv va kinolarni televizor orqali yorqin tarzda ko'rsatib beruvchi vosita, radio-televideniya, uyali aloqada ishlatiladi.

Bilgisayar – kompyuter ingl.computer-lot. computare – hisoblamok, hisoblab chiqmoq. Murakkab qurilmaga ega bo'lgan elektron hisoblash mashinasi, ma'lumotlarni yozish, jadval va slaydlar yaratish, rasm va chizmalar chizish bundan tashqari musiqa tinglash, videolar tomosha qilish, o'yinlar o'ynash va shu kabi turli xil funksiyalarni o'zida mujassamlashtirgan.

Hozirda zamon talabiga aylangan, deyarli barcha sohada ishlatiladi.

Internet – internet, inter, ingl. Net- to'r, o'rgimchak to'ri, umumjahon tarmog'i, umumjahon kompyuter tarmog'i; butun jahon bo'yicha tarqalgan va telefon hamda optik –tolali liniyalar, modemlar bilan o'zaro bog'langan, har qanday axborotni o'zaro almasha oladigan katta miqdordagi kompyuterlar majmui, funksiyasi esa, barcha sohalarda zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish, turli xil qo'shiq va kinolarni online ko'rish va ko'chirib olish mumkin. Hozirda zamon talabiga aylangan, deyarli barcha sohada ishlatiladi.

Kumanda – nem.pult-lot. pulpitum – taxtasupa, kafedra. Biror narsani avtomatik boshqaradigan asbob. Radioteleapparaturalarni boshqaruvchi asbob. Televizor pulti. Uning asosiy funksiyasi insonlarning ishini yengillashtiradi, o'tirgan yeridan televizorni boshqarish, hoxlagan kanaliga olib, istagan teledasturlarni ko'rish imkoniyatiga ega. Televizor, konditsaner, avtomobil, musiqa markazlarida foydalaniladi.

Radyo–lot.radiare-nur chiqarmoq, tarqatmoq. Ommaviy axborot vositalaridan biri-matnni va musiqiy dasturlarni eshittirish; radioeshittirish. Yuqorida keltirilgani kabi radioning ham funksiyalari bordir. Turli eshittirishlarni tinglash, qo'ng'iroq qilib o'yinlarda qatnashish, yaqin insonlarga salom va tabriklar yuborish, yangi musiqalardan habardor bo'lish shular jumlasidandir.

Televizyon – tele+p. videniye-ko'rish-lot. visio – ko'rish. Harakatdagi yoki harakatsiz obyektlarning tasvirini tovush bilan birga radioelektron vositalar yordamida muayyan masofaga uzatish va qabul qilish; uzoqdan ko'rish; axborot tarqatish vositalaridan biri. Televizor dunyodagi barcha bo'layotgan voqea-hodisa, bayram-u tantana, sport xabarlarini, ob'havo ma'lumotlari, musiqa va turli tillardagi filmlarni ko'rsatib beruvchi funktsiyaga egadir.

2) So'z birikmasi shaklidagi atamalarning ma'no va vazifalari esa quyidagicha:

Ankesörlü telefon – tele...+yun. Phone-tovush, ovoz. Uzoqdan turib so'zlashishga, ovoz, nutqni masofaga uzatishga xizmat qiladigan

elektr aloqa qurilmasi va uning signal qo'ng'irog'i hamda gaplashish trubkasi bo'lgan apparati, vazifasi esa, uzoqni yaqin qiladigan, yaqinlar bilan soatlarcha suhbat qurish, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muloqot vazifasini bajaruvchi vosita.

Cep telefonu – (Mobil telefon) - simsiz telefon, qo'l telefoni ya'ni zamonaviy telefon, oddiy telefondan ko'proq funksiyaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Qayerda, qay holda bo'lishdan qat'iy nazar, og'irni yengillashtiradigan, muloqot vositasi. U orqali boshqa nafaqat qo'ng'iroq qilish, balki xat ham yuborish mumkin. Rasm va videoga olish, musiqa va radio tinglash, hattoki internetdan ham foydalanish mumkin.

Buzlu cam – tele...+tasvir. Televideniye orqali uzatilgan va televizor ekranidan qabul qilinadigan tasvir. Dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalarni yorqin tarzda ko'rsatish xususiyatiga ega.

3) Simvol so'zlar (ramz, ya'ni belgi - so'zlar) shaklidagi atamalarning ma'no va funksiyalari:

CAPS LOCK tuşu – CAPS LOCK - bosh xarfga o'tuvchi tugma.

Num Lock tuşu – Num Lock – indikator (ko'rsatkich) mashina tugmasi.

Ma'no-mazmun va mantiq nuqtai nazaridan ham kompyuter va axborot texnologiya atamalarini uch guruhga ajratish, ularning izohi va bajarilish vazifalariga ko'ra quyidagicha ta'riflash mumkin:

1) Predmet nomlarini ifodalovchi atamalar:

